

## ALEKSANDR FAYNBERGNING “UCHRASHUV” SHE’RI BADIY VA FALSAFIY TAHLILI

**Abdishukurova Jasmina Dilshod qizi**

jasminaabdishukurova2108gmail.com

Xorijiy til va adabiyot fakulteti, O‘zbekiston davlat jahon

tillari universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19044129>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Aleksandr Faynbergning “Uchrashuv” she’ri badiiy va falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Asarda inson ruhiy kechinmalari, ichki ziddiyatlari, erkinlikka intilishga va yo‘qotilgan qadriyatlar masalasi yoritilgan. She’r ikki qismdan iborat dir. Birinchi qism lirik qahramon ning yashirin uchrashuvi orqali insoniy munosabatlar, muhabbat va umidsizlik kayfiyati ifodalangan. Ikkinchi qism esa qahramonning o‘z qilmishlaridan saboq olishi, muhohaza yuritib, tabiat va insonlar o‘rtasidagi munosabat va vijdon azobi kabi motivlarni ochib beradi.

**Kalit so‘zlar:** Aleksandr Faynberg, uchrashuv, lirik qahramon, falsafiy she’riyat, ramziy obrazlar, erkinlik, vijdon, tabiat

**Abstract:** In this article, the poem “Uchrashuv” by Aleksandr Faynberg is analyzed from artistic and philosophical perspectives. The work explores human emotional experiences, inner conflicts, the desire for freedom, and the issue of lost values. The poem consists of two parts: in the first part, human relationships, love, and a sense of hopelessness are expressed through the secret meeting of the lyrical protagonist. In the second part, the protagonist reflects on his own actions, revealing the relationship between human beings and nature, as well as the motifs of conscience, remorse, and repentance.

**Keywords:** Aleksandr Faynberg, meeting, lyrical hero, philosophical poetry, symbolic images, freedom, conscience, nature

**Аннотация:** В данной статье анализируется стихотворение «Uchrashuv» Aleksandr Faynberg с художественной и философской точки зрения. В произведении рассматриваются человеческие эмоциональные переживания, внутренние конфликты, стремление к свободе и проблема утраченных ценностей. Стихотворение состоит из двух частей: в первой части через тайную встречу лирического героя раскрываются человеческие отношения, любовь и чувство безысходности. Во второй части герой размышляет о своих поступках, раскрывая взаимоотношения человека и природы, а также мотивы совести, раскаяния и сожаления.

**Ключевые слова:** Aleksandr Faynberg, встреча, лирический герой, философская поэзия, символические образы, свобода, совесть, природа.

Uchrashuv  
Uchrashuvga va'dalashaylik,  
Uchrashmoqlik emas-ku gunoh.  
Qaygadir bosh olib ketaylik,  
Odamlarning ko'zidan uzoq.

Gitara va skripka jo'r,  
Sekingina taralar navo.  
Ne tilasang, ofitsiant momo  
Bir lahzada aylar muhayyo.

Sachrab o'ynar qordek ko'piklar  
Shampan-sharob ochilgan zamon.  
Betashvishdek tuyular hayot,  
Bo'lmagandek go'yoki armon.

Sharob g'amni yuvar ko'ngildan,  
Qanotlarin yig'ib ohista,  
Muhabbat va ishonch ikkovlon  
Yonimizga o'ltirar asta.

Ishonch birla, muhabbat birla  
Suhbatlasha olmaymiz ro'yrost.  
Ikkimizda hamma narsa bor,  
Faqatgina umid yo'q, xolos.

\* \* \*

Axir, menga kimlar ishongandi-ya,  
Pinhon umid qilib yurakka malham?!  
Maysalar, hayvonlar ishongandilar...  
Menga ishongandi onajonginam.

Erkinlik deb barin boy berib qo'ydim.

Onam qabri uzra yuzlarim shuvut.  
O't qo'ydim, maysalar qovjirab kuydi,  
O'q otdim, hayvonlar bo'lishdi nobud.

Qushdek erkin bo'ldim, mana, nihoyat.  
Kishandamasman-ku bamisoli qul?  
Bolaligimdagi so'lim tabiat  
Nega tushlarimga kirmaydi nuqul?

Qancha mamlakatlar tushdi kulfatga,  
Ummonlarim qani? Qani dengizim?  
Boqdim osmondagi noxush kalxatga,  
Asli shu kalxatni uchirgan o'zim.

Oyog'im ostida yerlar sho'r, taqir,  
Ketyapman yelkamda safar xaltam shay.  
Uyatdan yuragim o'rtanar, axir,  
Issiqda tashnalik qiynar ayamay.

Buloqqa tiz cho'kib, egilib pastga  
Chol kabi suv icha boshlayman uzoq.  
Suvdagi aksimga qo'shilib asta  
Yer qa'riga singib ketadi buloq.

Aleksandr Faynberg o'zbek adabiyotida o'zgacha ruhdagi she'rlari bilan tanilgan iste'dodli shoirlardan biridir. Adibning she'rlarida ko'pincha insonning ichki kechinmalari, hayotdagi mashaqqatlar, vijdon azobi, erkinlik va insonlar taqdiri haqidagi masalalar yetakchi o'rinda tursada, she'rlarining har bir misrasida olam-olam ma'no yashirindir. Ijodkorning she'rlarini o'qir ekansiz, goh quvonchdan sevinib ketasiz, goh g'amdan esilib kuyasiz. Xuddi shunday kuchli ta'sir va ma'noga ega she'rlaridan biri esa "Uchrashuv" deb nomlangan. Ushbu she'r Aleksandr Faynberg vafotiga 17 yil bo'lgan bo'lsa-da, hanuzgacha o'z mashhurligini yo'qotmay kelmoqda. "Uchrashuv" she'ri ikki qisimdan iborat bolib, birinchi qism romantik uchrashuvni, ikkinchisi esa har kim o'z qilmishlariga javobgar va mas'ul ekanligini aks ettiradi.

Ushbu maqola she'rning mavzusi, asosiy g'oyalari, obrazlari, badiiy vositalari va falsafiy mazmunini chuqur tahlil qiladi.

### Asosiy qism

Birinchi qism: Uchrashuv va ichki kechinmalar.

She'r lirik qahramonning uchrashishga bo'lgan intilishi bilan boshlanadi.

“Uchrashuvga va’ dalashaylik,

Uchrashmoqlik emas-ku gunoh.”

Bu misralar orqali uchrashuv oddiy emas, balki muqaddas va yashirin ekanligi anglashinadi. Shoir lirik qahramonning ichki dunyosini ochishga intiladi ya’ni ular odamlar ko’zidan yiroqda uchrashishni xohlashadi. Shu joyda ichki cheklanish va jamiyat bosimi mavzusi mohirona ask ettirilgan.

Romantik muhit she’rda musiqiy obrazlar: gitara, skripka va sokin navo bilan namoyon bo’ladi. Bu elementlar bayramona, zavqli muhitni tasvirlaydi, ammo keying misralarda shoir buni ichki bo’shlik bilan kontrastlaydi.

“Ikkimizda hamma narsa bor,

Faqatgina umid yo’q xolos.”

Lirik qahramondagi umidsizlik va bo’shliqni ifodalagan bu satrlar, undagi muhabbat va ishonchning mavjudligi ham kelajakka bo’lgan umidni qaytara olmayotganini ko’rsatadi.

Ikkinchi qism: Pushaymonlik va tabiat bilan bog’liqlik

She’rning ikkinchi qismi yanada falsafiy va introspektivdir. Unda lirik qahramon o’z hayoti, qilmishlari va tabiat bilan munosabatlarini tahlil qiladi.

“Axir, menga kimlar ishongandi-ya,

Pinhon umid qilib yurakka malham?!”

Aynan shu misralarda ishonch hissi paydo bo’ladi. Shoir u hisni tabiatdagi maysalar, hayvonlar va onaning bolaga ishonchi bilan bog’laydi. Bu obrazlar poklik, mehr va insonning asl tabiatini ramziy qiladi.

Ammo lirik qahramon o’z qilmishlaridan pushaymon.

“O’t qo’ydim, maysalar qovjirab kuydi,

O’q otdim, hayvonlar bo’lishdi nobud.”

Bu misralar o’ta dolzarb muammolarni yuzaga chiqargan, ya’ni inson o’z erkinligi yo’lida boshqalarga zarar yetkazishi tasvirlangan. Bu ekologik va axloqiy fojijaga o’xshaydi, garchi lirik qahramon erkinlikni qo’lga kiritgan bo’lsa-da.

“Qushdek erkin bo’ldim, mana, nihoyat.”

Ammo bu erkinlik unga bolalikdagi tabiat av begunohligi evaziga erishilgan va baxt keltira olmadi. Shoir shunday yozdi:

“Bolaligimdagi so’lim tabiat

Nega tushlarimga kirmaydi nuqul?”

Yuqoridagi satrlarda yo'qotilgan poklik va tabiiy muhabbatga bo'lgan ishonch ifodalangan.

She'ning badiiy xususiyatlari

She'rda bir qancha badiiy vositalardan foydalanilgan:

1. Metafora va ramz

“qordek ko'piklar”- bayramona atmosfera va hayotning tez o'tishi ramzi;

“qanotlarini yig'ib”- pushaymonlik va ichki cheklanish;

Kalxat- insoniyat yaratgan muammolar va kulfat;

Sho'r yerlar- vayron bo'lgan tabiat;

Buloq- hayot manbai va poklik.

2. Kontrast

Bu she'rda shoir qarama-qarshi obrazlardan unumli foydalangan:

Shampan va g'am;

Erkinlik va pushaymonlik;

Tabiat va vayrongarchilik.

Shu kabi kontrastlar she'ning dramatik va falsafiy kuchini oshiradi.

3. Ichki monolog

She'ning ikkinchi qismi lirik qahramonning o'zi hayollari va ichki meni bilan bo'lgan suhbatni o'z ichiga oladi. Bu esa o'quvchiga inson ruhiyatini yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

#### **Xulosa:**

“Uchrashuv” she'ri- insonning ichki dunyosi, vijdon azobi va yo'qotilgan qadriyatlar haqida falsafiy mushohada. Aleksandr Faynberg insonning erkinlikka intilishi ba'zan tabiat va ma'naviy qadriyatlariga zarar yetkazishini ko'rsatadi. Hayot, tabiat, erkinlik va ma'naviy mas'uliyat haqida chuqur o'ylashga undovchi bu she'r, lirik qahramonning ichki kechinmalari, kontrastli obrazlar va metaforalar orqali shoir o'z falsafiy g'oyasini mukammal ifodalaydi.

Ushbu she'r, shubhasiz, zamonaviy o'zbek adabiyotida inson ruhiy kechinmalrini tasvirlashda muhim o'rin egallaydi va o'quvchini hayotiy haqiqatlar bilan yuzma-yuz qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Aleksandr Faynberg. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.
2. Aleksandr Faynberg. She'rlar. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2007.
3. Ozod Sharafiddinov. Adabiyot nazariyasi va badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2010.



4. Naim Karimov. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2012.
5. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi. Zamonaviy o'zbek she'riyati masalalari. – Toshkent, 2016.